

Isroil Xudoyberdiev maktab bitiruvchilari bilan uchrashdi



Isroil Xudoyberdiev maktab bitiruvchilari bilan uchrashdi

25 may kuni mamlakatimizdagi barcha maktablarda 2020/2021 o'quv yili yakunlanadi. Pandemiya sababli har qancha murakkab bo'lsa-da, bu yilgi o'quv yili o'zgacha shukuh va ko'tarinki ruh bilan yakunlanmoqda. Negaki, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev ilk bor maktablarning bitiruvchilariga tabrik yo'lladi.

Bugun Termiz shahar hokimi Isroil Xudoyberdiev shahardagi 3-umumta'lim maktabida bo'lib, bitiruvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar bilan uchrashdi. Prezidentimizning bitiruvchilarga yo'llagan tabrigini o'qib eshittirdi.

Shuningdek, shahardagi barcha maktablarda bu kabi tadbirlar ko'tarinki ruhda o'tkazildi.

Bitiruvchilarga samimiyat, maqsad sari intiluvchanlik, hozirgidek toza qalb va teran tafakkur, halollik doimiy yo'ldosh bo'lishini tilab, ularga esdalik sovg'alarini topshirdi.